

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 450 sahifa.
2025-yil, 20-oktyabr,*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEKANIZMLARI	392
Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI	398
Bozorova Farida Maxmudjonovna	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	405
Пулатов Дилшод Ҳақбердиевич, Маматкулов Салимжон Раҳмонкулович, Хужамурадов Абдорбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR	410
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK	416
Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	421
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
МНОГОМЕРНАЯ БЕДНОСТЬ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ОЦЕНКА ЧЕРЕЗ РАМКУ MPI	426
Мамаризоев Жаҳонгир Исоҳонович	
ОЦЕНКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ВЛИЯНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБМЕННОГО КУРСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	430
Норбаева Мухлиса Акрам кизи	



RAQAMLI TO'LOVLAR ASOSLARI VA XAVFSIZLIGI	440
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	444
Xomidov Xojiakbar Adxamovich	

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI

Xomidov Xojjakbar Adxamovich

Andijon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida logistika xizmatlarini boshqarishning zamonaviy innovatsion usullari, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri hamda O'zbekiston amaliyotida qo'llanish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kaliit so'zlar: logistika, raqamli transformatsiya, innovatsion boshqaruv, blokcheyn, iqtisodiyot, samaradorlik, strategiya, paradigma.

Abstract. This article scientifically analyzes modern innovative methods of managing logistics services in the context of digital transformation, their impact on economic efficiency, as well as the possibilities of their application in the practice of Uzbekistan.

Keywords: logistics, digital transformation, innovative management, blockchain, economics, efficiency, strategy, paradigm.

Аннотация. В данной статье научно проанализированы современные инновационные методы управления логистическими услугами в условиях цифровой трансформации, их влияние на экономическую эффективность, а также возможности их применения в практике Узбекистана.

Ключевые слова: логистика, цифровая трансформация, инновационный менеджмент, блокчейн, экономика, эффективность, стратегия, парадигма.

KIRISH

So'nggi yillarda global iqtisodiyotda yuz berayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari barcha sohalar qatori logistika tizimini ham tubdan o'zgartirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi, sun'iy intellekt, Internet of Things (IoT), Big Data, blokcheyn va bulutli texnologiyalar kabi innovatsion yechimlarning amaliyotga joriy etilishi logistika xizmatlarini boshqarishning yangi paradigmasini shakllantirmoqda. Ushbu o'zgarishlar logistika tarmoqlarida nafaqat tashish, saqlash va taqsimlash jarayonlarini avtomatlashtirish, balki xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish hamda iste'molchilar ehtiyojiga moslashtirilgan xizmatlarni yaratish imkonini bermoqda.

Raqamli transformatsiya sharoitida logistika tizimi endilikda oddiy moddiy oqimlarni boshqaruvchi funksiyadan chiqib, raqamli ekotizimning muhim bo'g'ini sifatida shakllanmoqda. Bugungi kunda transport-logistika kompaniyalari raqamli platformalar, mobil ilovalar, GPS monitoring, dronlar va avtomatlashtirilgan ombor tizimlaridan foydalanish orqali xizmatlar sifatini oshirmoqda. Natijada, real vaqt rejimida ma'lumotlarni kuzatish, yetkazib berish zanjirini optimallashtirish hamda mijozlar bilan o'zaro interaktiv aloqani yo'lga qo'yish imkoniyati yaratilmoqda.

Shuningdek, logistika jarayonlarini boshqarishda raqamli tahlil va sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanish strategik qarorlar qabul qilishni soddalashtiradi. Masalan, transport yo'nalishlarini optimallashtirish, talabni prognozlash, zahiralarni boshqarish va xavf-xatarlarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish hamda ularni barqaror rivojlanish yo'lga olib chiqadi.

O'zbekiston uchun ham logistika xizmatlarini raqamlashtirish iqtisodiyotning umumiy samaradorligini oshirish, ichki bozorlarda raqobatni kuchaytirish hamda eksport salohiyatini yuksaltirishda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektron transport tizimlarini joriy etish, multimodal tashishlarni boshqarish va ta'minot zanjirlarini raqamli integratsiya qilish yo'nalishlarida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur o'zgarishlar logistika tizimini nafaqat texnik jihatdan yangilash, balki uni boshqarishning innovatsion usullari orqali yanada samarali, shaffof va raqobatbardosh shaklga keltirishni talab etadi.



Shu nuqtayi nazardan, logistika — bu mahsulot, xizmat va axborot oqimlarini ta'minlovchi murakkab tizim bo'lib, ta'minot zanjiri doirasida tashish, saqlash, qadoqlash, yuk bilan ishlash, taqsimlash hamda axborot almashinuvini o'z ichiga oladi. Logistika boshqaruvi esa ushbu jarayonlarni o'zaro hamkorlikda, optimal resurslardan foydalangan holda, iste'molchi ehtiyojlarini qondirish uchun minimal xarajat bilan amalga oshirishni anglatadi. Shunday ekan, O'zbekiston sharoitida logistika xizmatlarini boshqarishning innovatsion va raqamli yechimlarini o'rganish, ularni milliy amaliyotga moslashtirish hamda ilmiy asosda tahlil qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bu jarayonni chuqurroq tushuntirishda ilmiy adabiyotlarda bir qator muhim nazariy yondashuvlar qo'llaniladi. Ularning har biri logistika innovatsiyasining turli jihatlarini — texnologik yangilanishning qanday tarqalishini, foydalanuvchilar tomonidan qanday qabul qilinishini hamda ta'minot zanjirida qanday integratsiyalanishini tushuntiradi.

Avvalo, 2003-yilda Everett Rogers tomonidan ishlab chiqilgan Innovation Diffusion Theory (Yangiliklarning tarqalish nazariyasi) innovatsiyalarning tashkilotlar va tarmoqlar orasida qanday shartlarda yoyilishini izohlaydi. Ushbu nazariyaga ko'ra, har qanday yangilik jamiyatda bosqichma-bosqich qabul qilinadi: avval "innovatorlar", so'ng "erta qabul qiluvchilar", undan keyin "ko'pchilik" va nihoyat "kech qabul qiluvchilar" tomonidan. Bu yondashuv logistika tizimlarida yangi texnologiyalar — masalan, avtomatlashtirilgan omborlar, blokcheyn yoki raqamli kuzatuv platformalari — qanday sharoitlarda tezroq tarqalishini tushuntirishda foydalidir.¹

Ikkinchi muhim yondashuv — Technology Acceptance Model (TAM) bo'lib, uni Fred Davis ishlab chiqqan. Ushbu model foydalanuvchilarning yangi texnologiyani qabul qilish motivatsiyasini ikki asosiy omil orqali tushuntiradi: texnologiyaning "foydaliligi" (perceived usefulness) va "foydalanish qulayligi" (perceived ease of use). Logistika kontekstida ushbu model, masalan, transport boshqaruvi tizimlari (TMS) yoki ombor boshqaruv tizimlari (WMS)ni joriy etishda xodimlar hamda mijozlarning ularni qanchalik tez qabul qilishi yoki qarshilik ko'rsatishini tahlil qilishda qo'l keladi.²

Uchinchi asosiy konsepsiya esa — Supply Chain Integration Theory. Ushbu nazariya ta'minot zanjiri ishtirokchilari o'rtasida ma'lumot, resurs va jarayon almashinuvi darajasi butun tizimning samaradorligini belgilovchi omil ekanini ta'kidlaydi. Ya'ni, transport kompaniyasi, ombor, ishlab chiqaruvchi va yakuniy distribyutor o'rtasidagi real vaqt ma'lumot almashinuvi (visibility) darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, tizim shunchalik barqaror va samarali ishlaydi.³

Bu uch nazariya — yangilikning tarqalishi, qabul qilinishi va integratsiyasi — logistika innovatsiyalarining nazariy asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, keyingi yillarda ularni to'ldiruvchi yangi konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Masalan, M. Wang va hamkasblari tomonidan 2020-yilda taklif etilgan Logistics Innovation Capability (LIC) modeli logistika innovatsiyasini tashkilotning ichki salohiyati bilan uzviy bog'laydi. Ularning fikricha, innovatsion texnologiyalarni joriy etishdan avval tashkilotda kuchli boshqaruv madaniyati, texnologik tayyorgarlik va strategik yo'nalish mavjud bo'lishi zarur. Ushbu model logistika innovatsiyasining muvaffaqiyati nafaqat texnik vositalarga, balki inson kapitali, rahbarlik sifati va bilim boshqaruviga ham bog'liqligini ko'rsatadi.⁴

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida raqamli transformatsiya sharoitida logistika xizmatlarini boshqarish jarayonlariga oid ma'lumotlar ilmiy maqolalar, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tajriba manbalaridan yig'ildi. Olingan ma'lumotlar tizimli tahlil, solishtirma va kontent tahlili usullari orqali qayta ishlanib, innovatsion boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Zamonaviy iqtisodiy sharoitda logistika sohasida innovatsiyalarni joriy etish — ishlab chiqarishdan tortib iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan butun ta'minot zanjirining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omilga aylangan. Logistika innovatsiyasi deganda yangi texnologiyalarni (Internet of Things, robototexnika, dronlar, blokcheyn, sun'iy intellekt), ilg'or boshqaruv yondashuvlarini (lean-logistika, agile-logistika) hamda yangi xizmat modellarini (shared logistics, crowdsourcing logistika) qo'llash orqali logistika tizimini yanada moslashuvchan, samarali va raqobatbardosh qilish jarayoni tushuniladi.

1 Rogers, E. M. (2003). *Diffusion of Innovations* (5th ed.). New York: Free Press.

2 Davis, F. D. (1989). *Perceived Usefulness, Perceived Ease of Use, and User Acceptance of Information Technology*. *MIS Quarterly*, 13(3), 319–340.

3 Lambert, D. M. (2008). *Supply Chain Management: Processes, Partnerships, Performance* (3rd ed.). Sarasota, FL: Supply Chain Management Institute.

4 Wang, M., Jie, F., & Abareshi, A. (2020). *Logistics Innovation Capability and Its Impact on Supply Chain Sustainability*. *Sustainability*, 12(5).




1-rasm. Logistik xizmatlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv usulining tarkibiy shakllanishi⁵

Avtomatlashtirilgan boshqaruv usullari — bu turdagi boshqaruv tizimlarini tashkil etishda logistik xizmatlar ko'rsatish amaliyotida raqamli boshqaruv mexanizmlariga o'tilgan bo'lishi talab etiladi. Ayrim iqtisodiy manbalarda raqamli va avtomatlashtirilgan boshqaruv usullari bir turdagi boshqaruv usuli sifatida, ya'ni raqamli-intellektual boshqaruv usullari sifatida baholanadi. Ushbu boshqaruv turi tarkibiy jihatdan raqamli boshqaruv tizimi bilan bir xil tamoyillarga asoslanadi, biroq unga qo'shimcha ravishda IoT (Internet ashyolari) va AI (sun'iy intellekt) texnologiyalari yordamida boshqaruv jarayonlarida "Real-Time" (real vaqtdagi) kuzatuv imkoniyatlarini kengaytiradi, ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tartibda tahlil qilish va prognozlash imkonini beradi.

Bu turdagi boshqaruv usuli o'zining tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish, mahsulotlarni tashish bo'yicha transportirovka xaritalarini GPS tizimlari orqali optimallashtirish, avtomatlashtirilgan omborlashtirish va yetkazib berish o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlash, hamda boshqaruvning operativligini oshirish imkoniyatlari kengligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, mazkur boshqaruv usuli o'zining yuqori investitsion talabi, zamonaviy IT-infratuzilma ta'minoti va raqamli iqtisodiyotning samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan yuqori kasbiy kompetensiyaga ega kadrlar ehtiyoji bilan bog'liq murakkabliklarga ham ega hisoblanadi.

Mamlakatda logistik xizmatlar ko'rsatish bozorining rivojlanishi natijasida turli transport vositalari, jumladan, avtomobil, temir yo'l, havo va quvur yo'llari transportlari orqali yuk aylanmasi hajmi 2010–2024-yillar davomida 33,9 foizga ortib, 60,5 mlrd t-km.dan 81,0 mlrd t-km.gacha oshgani aniqlangan (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston logistik xizmatlar bozorida jami yuk aylanmasi hajmi (mlrd. t-km.da)⁶

Shuningdek, o'rganilayotgan davrda mamlakatda transport-logistika infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar transport xizmatlari turlari orqali yuk tashish aylanmasi hajmi bo'yicha tarkibiy o'zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Tahlillar 2010–2024-yillarda yuk aylanmasi hajmining quvur, havo, temir yo'l va avtomobil yo'llari bo'yicha quyidagi tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'lganini ko'rsatdi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda transport xizmati turlari orqali yuk aylanmasi hajmining tarkibiy ko'rsatkichlari tendensiyalari (jamiga nisbatan foizda)⁷

	Quvur yo'li transportining yuk aylanmasi	Havo yo'li transportining yuk aylanmasi	Temir yo'li transportining yuk aylanmasi	Avtomobil transportining yuk aylanmasi
2010 y	47,8	0,3	36,9	15,0
2015 y	45,6	0,2	34,8	19,5
2020 y	40,1	0,3	35,3	24,3
2024 y	35,6	0,4	34,0	30,1

⁵ Muallif tomonidan tuzilgan

⁶ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

⁷ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan



2010-yilda mamlakat logistik xizmatlar ko'rsatish sohasida yuk aylanmasining salmoqli qismi quvur va temir yo'l transporti sohalariga to'g'ri kelgan bo'lib, jami yuk aylanmasi hajmining 84,7 foizi aynan ushbu tarmoqlar hissasiga to'g'ri kelgan. 2024-yilgacha bo'lgan davrda yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar natijasida avtomobil transporti xizmatlari ko'rsatish sohasidagi yuk aylanmasi hajmi ortgan va bu umumiy yuk aylanmasi hajmida quvur, temir yo'l hamda avtomobil transporti sohalari o'rtasidagi ko'rsatkichlarning bir-biriga yaqinlashuviga olib kelgan.

O'rganilayotgan davrda quvur va temir yo'l transporti sohalarida yuk aylanmasi hajmining jami yuk aylanmasi hajmidagi ulushi kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Jumladan, quvur transportida ushbu ko'rsatkich 12,2 foizga, temir yo'l transportida esa 2,9 foizga qisqargani aniqlangan.

Mamlakat hududlari kesimida avtomobil transporti infratuzilmasining takomillashtirilishi, jumladan, xalqaro va respublika hududlari o'rtasida iqtisodiy aloqalarni o'rnatish hamda milliy ishlab chiqarish zanjirini shakllantirish imkonini beruvchi strategik ahamiyatga ega yangi turdagi avtomobil yo'llari liniyalarining ishga tushirilishi natijasida 2010–2024-yillar davomida avtomobil transporti orqali yuk aylanmasi hajmi 15,1 foizga ortib, 2024-yilda jami yuk aylanmasi hajmida ushbu sohaning ulushi 30,1 foizga yetgan.

Havo yo'llari transporti sohasidagi yuk aylanmasining jami yuk aylanmasidagi ulushi tahlil etilayotgan davrda 0,2–0,4 foiz oralig'ida dinamik rivojlanish tendensiyasini namoyon etgan. Ushbu holat havo transporti orqali logistik xizmatlar ko'rsatish amaliyotining boshqa turdagi transport xizmatlariga nisbatan sezilarli darajada qimmatligi bilan izohlanadi.

Raqamli transformatsiya davrida logistika sohasining mohiyati tubdan o'zgarib, u endilikda faqat tovar harakati va omborlash jarayonlarini tashkil etuvchi tizim emas, balki raqamli iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida shakllanmoqda. Logistika tizimining zamonaviy modeli ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv, sun'iy intellekt algoritmlari, sensor texnologiyalar, blokcheyn va raqamli platformalar orqali faoliyat yurituvchi integratsiyalashgan ekotizim sifatida talqin etilmoqda.

O'tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya logistika tizimining barcha bo'g'inlariga — ta'minot, ishlab chiqarish, taqsimot, qaytarma logistika va iste'molchilar bilan o'zaro munosabatlarga — chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Innovatsion texnologiyalar bu jarayonlarda real vaqt ma'lumotlarini qayta ishlash, qarorlarni tezkor qabul qilish, shaffoflikni oshirish va operatsion xarajatlarni kamaytirish imkonini yaratmoqda.

Nazariy jihatdan qaraganda, logistika innovatsiyasi endilikda faqat texnologik yangilikni joriy etish emas, balki butun boshqaruv tizimining transformatsion yangilanishini anglatadi. Yaratish, sinovdan o'tkazish, qabul qilish va integratsiyalash bosqichlari orqali innovatsiyalar g'oyadan amaliyotgacha, ya'ni korxona faoliyatining ajralmas elementi darajasigacha yetadi. Ushbu bosqichlarning izchil amalga oshirilishi logistika tizimida raqamli yetuklik darajasini oshiradi, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi hamda xizmatlar sifati va mijoz ishonchini mustahkamlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ilg'or raqamli yechimlarni joriy etgan kompaniyalar logistika samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Masalan, IT-texnologiyalar real vaqt monitoringi orqali transport yo'qotishlarini kamaytirsa, AI va ma'lumot tahlili vositalari talab prognozlashda aniqlikni oshirmoqda, blokcheyn texnologiyasi esa hujjat almashinuvi va to'lov jarayonlarida shaffoflikni ta'minlamoqda. Natijada, logistika tizimi tezkor, xavfsiz va ekologik jihatdan barqaror shaklga aylanmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham bu jarayon bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida transport-logistika sohasini modernizatsiya qilish, "E-Transport", "Smart Warehouse", "Single Window" kabi raqamli loyihalarni joriy etish hamda multimodal tashish tizimlarini kengaytirish orqali milliy logistika infratuzilmasi jadal raqamlashtirilmoqda. Shu bois, logistika tizimining barqaror raqamli rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi strategik yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yagona raqamli logistika platformasini yaratish zarur, bunda transport, bo'jxona, ombor va moliyaviy tizimlar o'zaro bog'langan holda ishlashi lozim. Ma'lumotlar boshqaruvi (Data Governance) kuchaytirish, ya'ni barcha ishtirokchilar o'rtasida standartlashtirilgan axborot almashinuvi tizimini shakllantirish muhimdir. Kadrlar salohiyatini oshirish ham ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, xususan, raqamli tahlil, sun'iy intellekt, blokcheyn va logistika menejmenti sohalarida yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash talab etiladi. Mahalliy startaplar va innovatsion markazlarni logistika texnologiyalarini ishlab chiqishga rag'batlantirish, shuningdek, ekologik barqarorlik tamoyillarini logistika jarayonlariga tatbiq etish — ya'ni "yashil logistika"ni raqamli boshqaruv vositalari orqali rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya logistika xizmatlarini boshqarishda yangi paradigmani shakllantirmoqda. Bu paradigma texnologik yondashuvlar bilan strategik boshqaruv qarashlarini birlashtirib, logistika tizimini ko'p darajali, intellektual va barqaror rivojlanish yo'liga olib chiqmoqda. Natijada, logistika



endi oddiy tashish faoliyati emas, balki raqamli iqtisodiyotning yurak tizimi — mamlakat iqtisodiy o'sishining harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davis, F. D. (1989). *Perceived Usefulness, Perceived Ease of Use, and User Acceptance of Information Technology*. *MIS Quarterly*, 13(3), 319–340.
2. Gammelgaard, B., Flint, D. J., & Mentzer, J. T. (2011). *The Changing Nature of Logistics and Supply Chain Management*. *International Journal of Physical Distribution & Logistics Management*, 41(7), 655–682.
3. Wang, M., Jie, F., & Abareshi, A. (2020). *Logistics Innovation Capability and Its Impact on Supply Chain Sustainability*. *Sustainability*, 12(5)
4. Tang, Y., & Liu, Z. (2024). *Digital Technologies, Logistics Innovation and Supply Chain Performance: Evidence from Emerging Economies*. *Journal of Business Research*, 169, 114–128.
5. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси маълумотлари
6. <https://lex.uz/>
7. <https://www.worldbank.org/>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100